Ota-bobolarimizning sog'lom avlodni tarbiyalashdagi, ma'nan boy insonlar etib shakllantirishdagi birinchi boshlang'ich pedagog muallim - xalqning o'zi deb bekor aytilmagan.

Tarbiya yo'lidagi Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino, Muxammad Bobur, Al-Farobiy kabi buyuk mutafakkirlar dastlabki musiqa ilmining tarbiyaviy ahamiyati haqida o'z ilmiy mehnatlarining bir qismini musiqa madaniyatiga bag'ishladilar. Bular, «Kitob ul musiqiy al-kabir» -musiqa haqidagi kitob, «Kalom il musiqiy»-musiqa haqida suhbatlar atamasidagi kitoblar kabi musiqaning ilmiy hususiyatlarini ochib hamda inson ruhiy holatiga samarali sifatlar bilan ta'sir etishini o'z mutaxassisligiga monand etib dalillab berishgan. Ular o'z asarlarida musiqaning mujizaviy ta'sirlari xaqida rivoyatlar, ertaklar, she'r va qo'shiqlar yaratishgan. Ayniqsa sharq adabiyoti sultoni, buyuk shoir va mutafakkirlari Bobur va Alisher Navoiy ko'plagan g'azallar, bayitlar yozib o'tgan. Bu asarlarni hozir ham o'lmas meros sifatida biz klassik asarlar sifatida foydalanib kelmoqdamiz. Navoiyning «Xamsa» asaridagi dostonlarida ham musiqa sozi haqida ko'p jumalarni keltirib o'tgan[34]. Uning bunday asarlari yoshlarni, insonlarni qanday yoshidan qat'iy nazar yaxshilikka, to'g'rilikka, buyuk kelajakka ma'naviy ta'sir ko'zi bilan qarashga undaydi. Shuning uchun ham ularni o'lmas shoir va mutafakkirlar deb eslaymiz.

Shuningdek, musiqa madaniyatiga xalq orasida o'z ijodiy faoliyati bilan xizmat etib kelgan musiqa ijodkorlarining hizmati katta. Ular baxshilar, jirovlar, qissaxonlar, shoirlar, halfalar, sozandalar va h.zo.

Xalq o'z ta'lim-tarbiyani qo'shiqlar orqali, tasviriy san'at orqali olishgan. Shuningdek, musiqa san'atidan faqat talim-tarbiya vositasida emas, balki o'z o'tmish tarixini bilib borish uchun xizmat vazifasini o'rinlagan. Demakki hali

³ I.A.Karimovning Yoshlar ittifoqi bilan ishlashi masalasidagi nutqidan 2001yil

kitob, yozish-chizish xalq ichida shakllanmagan davrlarda xalqning sof, o'lmas tarixi xalqning dostonlari, rivoyatlari, jirov-baxshilar repertuarlarida, xalfalar repertuarlarida shakllanib borgan. Ta'lim-tarbiya vazifasi esa shu yo'sinda termalar orqali, kichik - kichik nasixatli qo'shiqlar orqali tarbiyaviy ahamiyat kasb etishgan.

Xalqning ruhiy, ma'naviy merosida milliy musiqa dasturlarining tutgan o'rni ayriqcha ahamiyatli va milliy musiqa merosi dasturlarida badiiy hunarning ikki bir ta'sirli bo'lagi bunda tilsiz musiqaning sozi va qo'shiqdagi matnning birligi tarbiyaviy imkoniyat yaratadi.

Har bir xalqning milliy ruhiyati, madaniyati uning tarixiy-tadrijiy rivojlanish yo'lini aks ettiradi, uzoq vaqtlar davomida to'plagan, shakllangan fazilatlarini, o'git-nasihatlarini, elga, xalqqa singdirib boradi.

Demak, qonuniy turda davr o'zidan ilgari madaniy merosga asoslanib umr suradi. Buyuk kelajak egasi bo'lgan yoshlar bu jumlaning qonuniy merosxo'rlaridir.

Shuningdek, xalq musiqa merosimizning tarixiy va hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarga musiqa madaniyatini o'rgatish va tarbiyalashdir. Musiqa o'qituvchisi darslarga mavzularni tanlab rejalashtirishni, ko'rsatma qurollar, texnik vositalardan ham foydalanishini o'z kundalikli vazifasi etib oladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida musiqa ta'limini asosiy poydevori yaratiladi. Bunda o'quvchilar musiqiy tuyg'usiga va musiqiy qobiliyatiga monand milliy hamda jahon musiqa madaniyatining bebaho namunalari bilan tanishadi. Musiqa ijodkorlari musiqa va uning aniqlovchi qurollari xor, vokal salohiyati va tajribalarini paydo etadi. Shunda ularga bu san'atni to'g'ri, lo'nda va sodda etib bolalar tilida misollar keltirib, ularni zeriktirmasdan metodlar asosida o'yin shaklida tushuntirish lozim bo'ladi.

Boshlang'ich siflarda dars o'tish uchun ularga musiqiy ta'lim-tarbiya berishda darsda va darsdan tashqari tarbiya ishlarida musiqa hunarini to'g'ri, toza, sof o'zlashtirishga e'tibor berib o'rgatiladi. Boshlang'ich sinf bolasi butun umridagi musiqa tarbiyasini birinchi qabul qilmoqda, shuning uchun ham ularna to'g'ri yo'llantirish kerak. Qo'ldan etaklash kerak. Shuning uchun ham

pedagogika balkim qoʻldan etaklab yurish, etaklash soʻzligidan yoki jumladan kelib chiqqandir.

Shuningdek, bu davr balalarning turmushdagi poydevor yaratuvchi davri hisoblanadi. Negaki, ular nozik tabiatli, koʻngli toza, oʻz fikriga ega emas boʻladi. Ularni fikrlarini xalollik, toʻgʻrilik, Ona Vatanga muhabbat tuygʻusida yoʻgʻriltirish lozim.

Musika darsi oʻquvchilarni nafosat tarbiyasiga, maʼnaviyatiga sifatli taʼsir etadi. Ularning mustaqillik gʻoyalarini rivojlantiradi, oʻz millatidan gʻururlanadi, musiqa madaniyatiga qiziqish uygʻotadi. Ona Vatanni sevishga, bir-birini, kattalarni qadriga etish, jamiyatta oʻz oʻrnini mustaqil topa olishida yordam beradi.

Musika madaniy turmushmizda keng oʻrin olgan inson kamolatining rivojlanishida ulkan ahamiyat kasb etuvchi sanʼatning tarbiyasining asosiy va terang qismlarining biri boʻlib, atrofdagi chiroyli goʻzalliklarni toʻgʻri tushunishga va qadrlashga oʻrgatadi.

Musika insonning yuqori nafosatli fikr bilan qurollantiradi va shakllantiradi. Musika bamisli bar sehrli tayoqcha, uni kimga tekkizilsa u qandaydir boshqacha tarbiya oladi.

Musika inson hayotida uning hissiyotlariga kuchli taʼsir koʻrsatuvchi imkoniyatlarga ega boʻlib oʻquvchilarning nafosat dunyosiga olib kelish, maʼnaviy oziq olish bilan ham zarur baza sanaladi.

Milliy madaniyatimizning tarbiyaviy xususiyatlari toʻgʻrisida koʻplagan ishlarida oʻrganganlar va oʻz asarlarida keltirib oʻtganlar. Shulardan Shayx Saʼdiy aytishicha «Musika odam maʼnaviyatining yoʻldoshidir»[14]. Bu fikr xaqiqatdan ham musiqa insonga tez taʼsir etuvchi emotsional hissiyotning aʼlo rivojlantiruvchi quroli hisoblanadi. Inson musiqa bilan ona allasi orqali tanishib, umr davomida musiqadan quvonch, zavq topadi va madad oladi. Musika inson maʼnaviyatining ajralmas bir boʻlagi boʻlib hisoblanadi. Xalqning asirlar davomida toʻplagan boy tajribalari, jamiyatlik siyosiy, falsafiy, ilmiy, estetik, maʼnaviy bilimlarini va ruxiy sogʻlom tanali inson aql farosatining hamma fazilatlarin oʻzida jamlagan va tajriba juda terang donishmandlik bilan bayon etadi.

Boshlang'ich sinflarda dars o'tishda va darsdan tashqari musiqiy tarbiya ishlarida yuqorida aytilgan maqsadda muallim dars shaklini, mazmunini va metodikasini yaratib olishi va o'zi ustida mustaqil ishlab, malaka oshirib borishi zarur.

Bolalarning birgalikda va yakka qo'shiq aytish malakalarini shakllantirishi, to'plagan tajribalarini rivojlantirishi musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi bo'lib hisoblanadi. Musiqani tushunish uchun bolalarni eng avvalo ularni musiqiy savodxonligini oshirishga xizmat etuvchi komponentlardan foydalanib, ularga musiqa savodini ochishga yordam beruvchi qurollarni topib, qo'llab tarbiyalashi muallimning vazifasidir.

Tarbiyachi bolalarga tezroq va chuqurroq singishi uchun hamma fanlar xizmat qilishi tabiiy, ammo musiqa tarbiyasi bolalarga emotsional ta'sir ko'rsatadi va bolalar musiqani tezroq qabul etadi.

Musiqa ularni aqliy, ahloqiy rivojlanishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatib inson ongini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi, uning psixologik, fiziologik hissiyotlariga faol ta'sir ko'rsatadi.

Ota-onalar yosh chaqaloqlik davridan boshlab musiqalar (sokin ritmda) eshittirib, o'ynatib borish katta yoshdagi bolalardan ko'ra tez qabul qilib, saviyasi tezroq rivojlanadi. Bog'cha bolalarida ham musiqa muhim ahamiyat kasb etadi. Ritmik uyinlar, tabiat bilan bog'liq tovush yoki musiqalar jarangi, masalan: yong'ir tovushi, shalola va qo'ng'iroq tovushini ta'riflash, o'xshatish va qiyoslash, ularda umid, qiziqish, tabiatga muhabbat, mehr-oqibat hislari shakllanib boradi.

Umumta'lim maktablarining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarni fikrlash va o'ylash, mulohaza qilishga o'rgatishdir. Bu vazifani amalga oshirishga musiqa darsi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu faoliyatda o'qituvchi bolalarni ma'lum bir musiqa asari bilan tanishtiradi, o'zi ijro etib o'quvchilarning diqqatini o'ziga jalb etadi. Bu jarayon bolalarning nutqi, fikrlashini rivojlantiradi, dunyoqarashini rivojlantiradi, hissiyotlariga yaxlit ta'sir ko'rsatadi. Dars mazmunining asosiy vazifasi o'quvchilarning ongini voqealikka munosabatini rivojlantirish, munosabatini rivojlantirish, nafosat madaniyatini tarqib toptirish va ichki his

tuyg`ularini shakllantirishdir. O`qituvchi bu darsga mehr bilan yondashib, o`z oldiga rejalashtirilgan maqsad qo`yadi. O`qituvchi musiqa tarbiyasida yangi usul, yordamchi vositalar izlashi, hayotimiz va san`at orasidagi birikmani musiqa madaniyatining ma`no-mazmunini ifodalab berish, aniq dalil va tarixiy hodisalar tavsilotidan foydalanish maqsadiga ega buladi.

Shuning bilan birga dars bilan birga ma`naviy saboq bera boshlaydi, har bir qo`shiq mazmunidagi ma`naviy qirralarining asosini yoritish bilan bolalar dunyosiga yaqin kirib ularni o`z Vatanini jonkuyari, mehribon, bilimdon va aqlli etib tarbiyalashni bosh maqsadiga qo`shib qo`yadi.

Musiqa darsi boshqa fanlardan o`zining nafosati, tilsiz mushkulotni engil bayon etishi, o`zining spetsifik hususiyatlari, zavq - shavqi, tuyg`ulari bilan ajralib turadi. O`qituvchi bu hususiyatlardan foydalanib yangi pedagogik texnologiya, tarbiya usullarini ishlab chiqishi, sinfxonani musiqaga moslab jihozlashi, ko`rsatma qurollardan foydalana olishlari ma`qul. Bu hususiyatlar mazmunida musiqa nazariyasi, ritmikasi, nolasi va buning tarannum etilishi, eshitish elementlari mavjud.

Musiqa barcha fanlar bilan bog`liq bo`lib, barcha fanlarga psixologik, fiziologik ta`sir ko`rsatadi.

Shunday ekan, zamonamiz mustaqil elimiz ta`lim tizimida dolzarb vazifa, ta`lim burchi bo`lgan milliy qadriyatlarimizni bu faoliyatda qo`llab, mumtoz musiqa navolarimizni bolalarga singdirib, shu bilan birga o`zimiz milliy qo`shiqlarni o`rganib, o`zlashtirib, milliy g`ururimizni shakllantirib va shakllangan tafakkur gulshanidan o`quvchilarni bahramand etish, musiqa o`qituvchisining vazifasi hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun biz yana milliy an`analarimizni o`nganishda turlicha tajriba bazalarimizga murojat etamiz. Buning uchun o`qituvchi, metodist ilmiy tadqiqot ishlari hulosalari va tavsiyalariga tayanib, yangi uslublar ishlab chiqib o`z pedagogik texnologiyalarini yaratishi va qo`llashi zarur.⁴

⁴ S. Romanovanning ilmiy maqolalar toplamidan (1999-2022)

Bunda o`quvchilar musiqa madaniyatini butun nafosatini o`rganishlari, musiqani tushunish, yakka va kollektiv bo`lib qo`shiq aytirish va raqs ijrosi, ritmik o`yinlar o`ynashi ijodiy tajribalarni shakllantirish, musiqa tarbiyasining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shuningdek, o`quvchilar intilishlarini inobatga olish, ularni mukammal o`rganishlari uchun ularga imkoniyatlar berish va ularning badiiy xordiqklarini chiqarish uchun ham yana musiqa tarbiya ishlari orqali amalga oshadi.

Bolalarning har bir xatti-xarakatlarini inobatga olib rag`batlantirilib borilishi ularni nafaqat musiqaga bo`lgan, balki barcha ta`limga ularni mehri uyg`onadi, o`qishga qiziqishi oshadi, maktabga tezroq shoshiladi, uyidagilarga, do`stlariga maktabi to`g`risida gapirib beradi va kelajakda o`z o`rnin topa oladigan irodali inson bo`lib etishadi. Aksi bo`lsa bu o`quvchining xaddi sinib tortinchoq, ularga barcha narsa behudadek tuyuladi. Bunda esa boshqa fanlarga qaraganda musiqa tarbiyasi bolaga tez va tabiiy ta`sir etadi.

Musiqiy tarbiya zamirida esa necha zamonlardan bizga belgili bo`lib kelgan butun borliq tarbiya kaliti yotadi, chunki ona allasi ilk tarbiyaning belgisidir. Demak, tarbiya musiqa bilan chambarchas bog`liq bo`lgan psixo-pedagogik jarayon. Bu hususda belgili buyuk allomalarimiz o`z ilmiy asarlarida yozib o`tishgan.

Musiqiy kuy tuyg`u, quvonch odam tanasiga jon bilan kirgan deb aytiladi. Musiqaning kishi ruxiyatiga ta`sirini so`z bilan tushuntirish qiyin. Odatta qo`shiq kuy, raqs ijrosi bilan inson o`zining toza beg`ubor tuyg`ularini ajoyib dunyosi qo`shiq matnlarida, kuy va raqsning jozibali xarakterida o`z in`ikosini topadi.

Musiqa san`ati insonlarga shu jumladan bolalarga mehr muxabbat, milliy musiqaga qiziqish, Ona Vatanni sevish, bir-birini, kata-kichiklarni xurmat-izzat etish, mehnatni qadrlash va turmushda o`z o`rnini topishga yordam beradi.

O`quvchilar bilimini va ma`naviyatini rivojlantirish uchun zarur imkoniyatlar yaratib berish va ularning badiiy zarurligini qondirish musiqa tarbiyasining vazifasini o`rinlaydi.

Bolalar musiqa darsida asarning barcha tarbiyaviy ahamiyati, xis tuyg`ulari bilan eshitadi, faraz qiladi, ma`naviy oziq oladi va ta`lim oladi.

Musiqa o`qituvchisi yoki har qanday fan muallimi bo`lishiga qaramay o`z darsiga mehr bilan yondashsa, uning butun sir va uslublarini terang egallaydi, shuningdek, o`z-o`zini anglaydi, shu kasb bo`yicha kamol topadi.

Umuman olganda shuni alohida ta`kidlash loziki, boshlang`ich sinfdagi o`qituvchilarning ishlash jarayoni hamkorlikda bo`lishlari darkor. Shunda gina qatta sinflarda ularga dars berish oson kechadi va ta`limda va tarbiyada sifat o`zgarishlari yuz berishi kutiladi. Bundan tashqari o`quvchi bo`sh o`zlashtirishning sub`ektiv sabablari ham mavjud. Masalan, oilaviy sharoiti, fanga bo`lgan qiziqishi yoki tarbiyasi, ahloqi kabi ma`lumotlarning aniqligi o`qituvchi va o`quvchi muloqotining samarali tashkil etilishini ta`minlaydi. Shu bois o`qituvchi dastlab o`quvchining o`zlashtirilmasslik sababini izlashi, aniqlashi vash u asosda u bilan shug`ullanishi lozim. Bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchi dars jarayonida aniqlanadi. Ularning ro`yxati tuzilib yakka tartibda ishlanadi. Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, bo`sh o`zlashtiruvchi o`quvchilar bilan ishlashda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, pedagogik maqsad aniq bulishi lozim.

Pedagogik maqsad quyidagicha bo`lishi mumkin:

- 1.O`quvchilarning ruhiy holatlariga e`tibor bergan holda darsni tashkil etish.
- 2.Dars jarayonida ilg`or pedagogik ish uslublaridan o`z o`rnida foydalanish.
- 3.Har bir darsni fanlar aro bog`lanishda o`tish va uzviylikni ta`minlash.
- 4.O`quvchilarning bilimlar darajasini DTS talablaridan ham yuqori natijalarga ko`tarish uchun qo`shimcha adabiyotlardan, videofil`mlardan, radioeshittirishlardan, komp`yuter texnologiyalaridan foyldalanishga erishish.
- 5.Ilmiylikka e`tibor qaratish.

Shuningdek, mashg`ulotda o`quvchilarning erkin qo`yish, bolalarning xarakteriga, qiziqishlariga qarab, ular bilan do`stlashgan, ularni tushungan holda mashg`ulotlar olib borish, eng muhimi, ilmiy yangilik berish bolalar qiziqishini yanada oshiradi.

1.4.MUSIQA TA'LIMINING TARBIYAVIY HUSUSIYATLARI BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI HAQIDA

O'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxsni shakllantirishni madaniyat, jumladan, musiqa asoslarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning musiqiy madaniyatini tarbiyaviy ishlarni maqsadli, tizimli va tizimli tashkil etish sharti bilan rivojlantirish mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktab va darsdan tashqari vaqtlarda tarbiyaviy ishlarni qiziqarli va rang-barang tashkil etish qanchalik muhimligini biladi. Lekin amalda u har doim ham musiqa madaniyatining ulkan imkoniyatlaridan foydalana olmaydi, chunki maxsus musiqa adabiyoti va bolalarni musiqiy tarbiyalash bo'yicha uslubiy materiallar mutaxassislar - musiqa o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Ushbu qo'llanma nafaqat mutaxassis musiqachi, balki chinakam musiqa ixlosmandlari tomonidan ham tayyorlanishi va o'tkazilishi mumkin bo'lgan turli xil o'quv mashg'ulotlari, sinfdan tashqari musiqiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bola shaxsining ma'naviy-axloqiy, badiiy va estetik asoslarini yaratadi, bolalarni san'at olamiga birinchi yo'l boshchisiga aylanadi. Zamonaviy musiqa pedagogikasi maktab o'quvchilarining rivojlanishi, ta'lim va tarbiyasi uchun keng imkoniyatlarga ega. Musiqa bolaga har daqiqada hamroh bo'ladi, lekin musiqiy ma'lumotlar oqimi ko'pincha u tomonidan boshqarilmaydi va amalga oshirilmaydi. Musiqa ongni chetlab o'tib, ongsiz va ongsiz jarayonlarga bevosita ta'sir qiladi, bolaning psixikasi va somatikasiga ta'sir qiladi.

Bo'lajak o'qituvchi uchun mamlakatimiz va xorijiy musiqa madaniyati asoslari, musiqa san'atining turli janrlari, yo'nalishlari, bolalarni musiqiy tarbiyalashning ko'p asrlik an'analarining to'plangan tajribasi, ular bilan ishlash uslub va uslublarini puxta egallashi nihoyatda muhimdir.

Musiqa vositasida bolalarni badiiy va estetik tarbiyalash sohasida zamonaviy pedagogikada bir qancha yo'nalishlar belgilab berilgan va faol

rivojlanmoqda. Musiqiy ta'lim kasbiy faoliyat sifatida qaraladi. Musiqa o'quv jarayonining maqsadi, bola esa vosita sifatida ishlaydi; shaxsni umumiy va har tomonlama rivojlantirish vositasi ta'lim jarayonining maqsadi - bola; ijodiy faollikni oshirish usuli; bolalarning hissiy rivojlanishi uchun sharoitlar. So'nggi yillarda musiqa estetik terapiya vositasi sifatida qaraladi; Bolaning uyg'unligi funktsional musiqa ta'sirida sodir bo'ladi, chunki u terapevtik funktsiyalarni bajarishi, bolaning energiya muvozanatini tiklashi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi musiqa taraqqiyoti jarayonida bolaning shaxsiyatini uyg'unlashtirishga qaratilgan musiqiy pedagogika asoslarini o'zlashtira oladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining musiqa ta'limi sohasidagi faoliyati umumiy rivojlanishga qaratilgan bo'lishi kerak bolalar musiqa orqali. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining musiqiy dunyoqarashini kengaytirish, musiqa madaniyatini yuksaltirish zarurligini musiqa o'qituvchi inobatga olishi, shuningdek boshlang'ich sinflarda musiqa darslarining mazmunini hisobga olib dars jarayonini amalga oshiradi.

“Buyuk rus bastakori P.I. Chaykovskiy shunday dedi: "Men butun qalbim bilan musiqam tarqalishini, uni sevadigan, tasalli va qo'llab-quvvatlovchilar soni ko'payishini istardim." Va yana: "Ehtimol, hayotimda hech qachon mualliflik bema'niligim meni quartetimdan Andanteni tinglab, yonimda o'tirgan Lev Tolstoy yig'lab yuborganidek hayratda qoldirmagan va ta'sirlanmagan." Insonning buyuk fikrlari, chuqur his-tuyg'ulari olamini ifodalovchi, hissiy ta'sir uyg'otishga qodir, qalbning axloqiy tomonlariga ta'sir etuvchi yorqin badiiy asarlar yosh o'quvchilar madaniyatini tarbiyalashning manba va vositasiga aylanadi. Musiqaning uchinchi xususiyati, D. Shostakovichning fikricha, uning “go'zal asl tili”dir. Ifodali, yorqin kuy, garmoniya, o'ziga xos ritmni uyg'unlashtirib, kompozitor o'zining dunyoqarashini, atrof-muhitga munosabatini ifodalaydi. Aynan shu yuksak badiiy mahoratga ega musiqa san'ati asarlari kichik yoshdagi maktab o'quvchilarini boyitib, ularning musiqiy va axloqiy madaniyatini faol shakllantirish imkonini beradi. Musiqa barcha tinglovchilarga bir xil kuch bilan ta'sir qila oladimi? Katta ehtimol bilan yo'q. Va bu uning yana bir xususiyati. Har bir talaba o'ziga xos tarzda

musiqaga qiziqish va ishtiyoqni namoyon qiladi, ma'lum bir tinglash tajribasiga ega bo'lgan har qanday musiqiy janrga, sevimli kompozitorga, alohida asarga ustunlik beradi. Biroq, odam o'qish, yozish, hisoblash, chizishni o'rgatganidek, musiqani tanib olishni, baholashni, diqqat bilan tinglashni, tasvirlarning dinamik rivojlanishini, qarama-qarshi mavzularning to'qnashuvi va kurashini va ularning tugallanishini qayd etishni o'rganish kerak. Faol idrok - musiqa rivojlanishining butun yo'nalishini kuzatish qobiliyati. Biz bu "chiroyli o'ziga xos tilni" tushunishni o'rganishimiz kerak. Musiqiy did asta-sekin rivojlanadi, musiqa bilan doimiy aloqada bo'lish zarurati tug'iladi, badiiy tajribalar yanada nozik va rang-barang bo'ladi. Musiqa san'ati bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish vositasi sifatida, aqliy qobiliyatlarni, axloqiy me'yorlarni, hayotga va umuman san'atga estetik munosabatni uyg'un rivojlantirish sifatida - yaxlit shaxsni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlardir. Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish ham ana shu yuksak maqsadni amalga oshirishga ko'p jihatdan xizmat qiladi. Axloqiy tarbiya kichik yoshdagi o'quvchilarning go'zalni idrok etish, his qilish va tushunish, yaxshi va yomonni payqash, mustaqil ravishda ijodiy harakat qilish, shu orqali ularni turli xil badiiy faoliyat turlari bilan tanishtirish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Musiqa san'ati esa kichik yoshdagi o'quvchilarni axloqiy tarbiyalashning eng yorqin vositalaridan biridir. Bu eng muhim vazifani bajarishi uchun bolaning umumiy musiqiy qobiliyatini rivojlantirish kerak. Umumiy musiqiylikning asosiy xususiyatlari nimada? Musiqiylikning birinchi belgisi - musiqa asarining xarakterini, kayfiyatini his qilish, eshitilgan narsaga hamdardlik, emotsional munosabat ko'rsatish, musiqiy obrazni tushunish qobiliyatidir. Musiqa tinglovchini hayajonlantiradi, javoblarni uyg'otadi, hayot hodisalari bilan tanishtiradi, assotsiatsiyalarni keltirib chiqaradi. Marshning ritmik ovozi uni shodlik, ko'tarinkilik, "Bedana" qo'shig'i esa qayg'uga soladi, hamdardlik, hamdardlik uyg'otadi. "L.Betxenning "Marmot" nomli g'amgin qo'shig'ini kattalar ijrosida eshitib, o'quvchi shunday dedi: "Odam o'z qayg'usini kuylaydi". Bu bolaning ruhiy holatini bildiruvchi qo'shiqning kayfiyatini his qilganligini anglatadi. Musiqiylikning ikkinchi belgisi - eng yorqin

va tushunarli musiqiy hodisalarni tinglash, taqqoslash, baholash qobiliyati. Bu elementar musiqiy va eshitish madaniyatini, muayyan musiqiy ifoda vositalariga qaratilgan o'zboshimchalik bilan eshitishni talab qiladi. Musiqiylikning uchinchi belgisi musiqaga ijodiy munosabatning namoyon bo'lishidir. Uni tinglab, bola o'ziga xos tarzda badiiy tasvirni taqdim etadi, uni qo'shiq aytishda, cholg'u chalishda etkazadi. Misol uchun, hamma jadal yuradigan maktab o'quvchilariga A. Paxmutov "Burgutlar uchishni o'rganmoqda", og'ir qadam tashlaydigan ayiq va harakatlanuvchi quyonlarga D. Kabalevskiy "Ayiq bolasini masxara qilayotgan quyon" ga xos ifodali intonatsiyalarni qidiradi.", qo'shiq-o'yin vaziyatida o'zbek xalq qo'shig'i "Lagancham". Bularni ritmik harakatlar bilan qo'shiq aralash bolalarga o'rgatish orqali ularni ijtimoiy mehnat faoliyatiga ham ko'nikma hosil qiladi. Umumiy musiqiylik rivojlanishi bilan bolalarda musiqaga hissiy munosabat shakllanadi, eshitish yaxshilanadi, ijodiy tasavvur tug'iladi. Bolalarning tajribalari o'ziga xos axloqiy rangga ega bo'ladi. Musiqiy san'at bolaning his-tuyg'ulariga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning shaxsiyatini shakllantiradi. Musiqaning ta'siri ba'zan ishontirish yoki ko'rsatmalardan ko'ra kuchliroqdir. Bolalarni turli xil hissiy va majoziy mazmundagi asarlar bilan tanishtirish orqali biz ularni empatiya va hayotni tushunishga undaymiz. Vatan, O'zbekiston haqidagi qo'shiqlar Vatanimizga muhabbat tuyg'usini uyg'otadi. Turli xalqlarning dumaloq raqslari, qo'shiqlari, raqslari ularning urf-odatlariga qiziqish uyg'otadi, baynalmilal tuyg'ularni tarbiyalaydi. Musiqaning janr boyligi qahramonlik obrazlari va lirik kayfiyatni, quvnoq hazil va shiddatli raqs ohanglarini idrok etishga yordam beradi. Musiqani idrok etishdan kelib chiqadigan xilma-xil tuyg'ular bolalarning tajribalarini boyitadi, ularning ma'naviy dunyosini shakllantiradi. Jamoa bo'lib qo'shiq aytish, musiqa muhokamasi, cholg'uni birgalikda chalish, bolalar umumiy tajriba bilan qamrab olinganda, ko'p jihatdan ta'lim muammolarini hal qilishga yordam beradi. Qo'shiq aytish ishtirokchilardan, eng avvalo, ohangdor-ritmik ansamblni talab qiladi. Noto'g'ri qo'shiq aytish yaxshi ovozga xalaqit beradi, lekin musiqiy jihatdan zaif talaba spektaklni diqqat bilan tinglashni boshladi va bu hamma tomonidan omad deb qabul qilinadi. Umumiy tajribalar individual

rivojlanish uchun qulay zamin yaratadi. O'rtoqlarning namunasi, umumiy ishtiyoq, ijro quvonchi qo'rqqoq, qat'iyatsizlarni faollashtiradi.

Musika darslari kichik o'quvchining umumiy buyruq madaniyatiga ta'sir qiladi. Har xil vazifalarning, faoliyatning (qo'shiq aytish, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asboblari chalin va boshqalar) almashinishi bolalardan e'tiborni, zukkolikni, reaksiya tezligini, kuchli irodali harakatlarni namoyon qilishni talab qiladi. Qo'shiqni ijro etayotganda, uni o'z vaqtida boshlash va tugatish kerak; ichida. cholg'u asboblari birgalikda chalin, musiqaga bo'ysunish va tezroq o'ynashga bo'lgan impulsiv xohishni tiyib, harakat qila olishi kerak. Bularning barchasi inhibitiv jarayonlarni yaxshilaydi, irodani tarbiyalaydi. Shunday qilib, musiqiy faoliyat bola shaxsining axloqiy fazilatlarini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, kelajakdagi shaxsning umumiy madaniyati uchun dastlabki asoslarni yaratadi.

Musiqani tushunish ritmni his qilish aqliy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq, ya'ni. diqqat, mushohada, zukkolikni talab qiladi. Bolalar tovushni tinglaydilar, tovushlarni balandlikda taqqoslaydilar, ularning ekspressiv ma'nosi bilan tanishadilar, badiiy tasvirlarning xarakterli semantik xususiyatlarini qayd etadilar, asar tuzilishini tushunishni o'rganadilar. O'qituvchining savollariga javob berib, ish tugagandan so'ng, bola birinchi umumlashtirish va taqqoslashlarni amalga oshiradi; asarning umumiy xarakterini belgilaydi, qo'shiqning badiiy matnining musiqiy vositalar yordamida aniq ifodalanganligini sezadi. Axloqiy baholashning bu birinchi urinishlari faol aqliy faoliyatni talab qiladi va o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Boshqa san'at turlari singari musiqa ham tarbiyaviy ahamiyatga ega. Unda maktab o'quvchilarini yangi g'oyalar bilan boyitgan hayotiy hodisalar aks ettirilgan. Jumladan, E.Tilecheyevaning "Bu bizning Vatanimiz" qo'shig'ini tinglab, Vatanimizni ulug'layotgan xalqning tantanavorligini, yuksalishini, shodligini his qiladilar. Bolani axloqiy va aqliy jihatdan rivojlantirish, idrok va tasavvurni faollashtiradigan, fantaziya va tasavvurni uyg'otadigan ahamiyatsiz ijodiy ko'rinishlarni ham har tomonlama qo'llab-quvvatlash kerak. Kattalar bolaga ijodiy vazifalarni qo'yganda, aqliy faoliyatni talab qiladigan

qidiruv faoliyati paydo bo'ladi. Masalan, qo'shiq aytishda bola improvizatsiya qiladi, ohangning o'ziga xos variantini yaratadi, badiiy matnni ifodali intonatsiyalar bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladi. Musiqiy va ritmik mashg'ulotlarda, ayniqsa darsdan tashqari vaqtlarda bolalar katta zavq bilan ixtiro qiladilar, raqs harakatlarini, qo'shiq aytishni va musiqaga harakat qilishni birlashtiradilar. Raqs, xalq raqsi, pantomima va ayniqsa, musiqiy dramatisatsiya kichik yoshdagi o'quvchilarni ifodali harakatlar, yuz ifodalari va so'zlardan foydalangan holda hayot manzarasini tasvirlashga, xarakterni tavsiflashga undaydi. Xulosa Bolaning boshlang'ich maktabga kelishi - bu kundalik hayot tarzining o'zgarishi, maktabdagi o'quv jarayoniga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish zarurati tufayli psixologiyaning o'zgarishi, bola o'qishni davom ettirganda axloqiy va tarbiyaviy muhitning o'zgarishi. ma'naviy rivojlanishning to'plangan tajribasini yangi bosqichda tushunish. Ijtimoiy voqelikning dolzarb muammosi musiqa ta'limi jarayonini o'z ichiga oladi, chunki boshlang'ich maktab insonning musiqa san'atiga, umuman, ma'naviy madaniyatga, asrlar davomida ustalar tomonidan yaratilgan go'zal "musiqa ummoni"ga keyingi munosabatining asosidir. musiqa san'ati. Mutaxassislar va boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kichik yoshdagi o'quvchilar bilan musiqiy ishining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalaga to'xtalmaslik mumkin emas. Agar mutaxassis o'qituvchilar boshlang'ich maktabda musiqa pedagogikasi muammolarini puxta hal qilishga imkon beradigan katta professional musiqiy ma'lumotga ega bo'lsalar, unda boshlang'ich sinf o'qituvchilari kichik yoshdagi o'quvchining psixologiyasini chuqur kasbiy bilimga ega bo'lishlari, uning individual ijobiy va salbiy shaxsini tushunishlari kerak. xususiyatlar, pedagogik jarayonni shunday tashkil eta olish, salbiy tomonlari tekislanadi, ijobiy tomonlari esa mustahkamlanadi. Musiqiy va pedagogik kasbiy mahoratning simbiozi musiqa ta'limi sohasida ajoyib natijalar berishi mumkin. Yosh maktab o'quvchilarining musiqiylik darajasi, afsuski, aytish kerakki, allaqachon ketma-ketlik bilan sezilarli darajada pasaygan, chunki ko'pchilik otalarning musiqiy qulog'i, xususan, musiqalilik darajasi past. Albatta, intellektual salohiyat ancha yuqori, lekin uni saqlab qolish, rivojlantirish va insonni badiiy

madaniyat haqidagi ijodiy bilimlardan chalg'itadigan paydo bo'ladigan ijtimoiy muammolarni tezda hal qilish kerak. Ufqlarni kengaytirish va umumiy madaniy rivojlanish darajasini oshirish bilan bir qatorda, musiqa va axloqiy ta'lim maktab o'quvchilarida etishmayotgan hayotiy tajribani to'plash, fikr va his-tuyg'ularning ijobiy yo'nalishi, shaxsning ichki dunyosini chuqur shakllantirish, o'z-o'zini tutish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi. badiiy did, estetik va axloqiy tamoyillar, ya'ni har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish. "Shakllanish" atamasi musiqiy ta'limning pedagogik o'ziga xosligini, shuningdek, uning maqsadli qo'yilishi, muayyan muammolarni hal etishni ta'kidlaydi. Musiqiy ta'lim mazmuni o'quvchini ma'naviy madaniyatni shakllantirish uchun barcha qadriyat fazilatlarini musiqiy bilimli shaxs sifatida shakllantirishning maqsadli, tashkil etilgan va boshqariladigan pedagogik jarayoni bilan amalga oshiriladi. Integratsion kontseptsiyada ifodalangan shaxsning his-tuyg'ulari, bilimlari, ehtiyojlari va fazilatlarining haqiqiy to'plamini rivojlantirish kerak.

Bolaning musiqiy madaniyati ijtimoiy-pedagogik o'ziga xosligida. ostida bola shaxsiyatining musiqiy madaniyati shaxsning individual ijtimoiy va badiiy tajribasi nazarda tutiladi, bu esa yuqori musiqiy ehtiyojlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi; shaxsning integral xususiyati, uning asosiy ko'rsatkichlari musiqiy rivojlanish, musiqiy ta'limdir.

II-BOB. MUSIQA FAOLIYATINING O'QUVCHILAR TA'LIM-TARBIYASIDAGI O'RNI VA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA RITMIK HARAKATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

2.1. MUSIQIY FAOLIYAT JARAYONIDA BOLANING MUSIQIY QOBILIYATLARINI O'STIRISH

Bola va uning qobiliyatlarining o'sishi katta kishi tomonidan uyushtiriladigan faoliyatda: qo'shiq, ritmika, muzika tinglash va musiqa asboblari chalishda sodir bo'ladi. Bolalar o'zlarining musiqa eshitish tajribalari asosida o'z tasavvurlarini qo'shiq, o'yin, raqs ijodida namoyon qilishga va musiqa savodining oddiy elementlarini egallashga qodirdir.

Shu bilan birga bola faoliyatining har bir turi umuman musiqa qobiliyatlarining o'sishiga, maxsus qobiliyatlarning shakllanishiga, masalan: kushik aytish, ashulachilik ovozi va kuy qobiliyatining tarkib topishiga yordam beradi.

Bularning barchasi turli tashkiliy formalarda: mashg'ulotlarda, o'qishdan tashqari ishlarda (bolalar bog'chasi xatida musiqa) va mustaqil faoliyatlarida bo'lib o'tadi.

Barcha bolalar bilan bir vaqtda va musiqa amaliyatining barcha turlari bo'yicha rejali olib boriladigan mashg'ulotlar ishning eng muhim formasi hisoblanadi. Pedagog o'z ishini rejalashtirar ekan, bolalar bilan bo'ladigan har bir uchrashuvning aniq vazifalari unga ravshan bo'lishi kerak, o'quv materiallarini butun o'quv davriga taqsimlaydi. U butun jamoaga murojaat mashg'ulotini dinamik, variantlab olib borishga, bolalar e'tiborini ustalik bilan boshqa tomonga burishga, unga ijro etilayotgan musiqa xarakterini to'g'ri idrok etishga yo'llashga majbur qiladi. SHu bilan birga mashg'ulot yagona reja bilan birikkan bo'lishi kerak.

Amaliyot jarayonida mashg'ulotlar o'tkazishning quyidagi tartibi shakllangan. U bolalarni tinglash qobiliyatini, e'tiborini to'plab jamoani yaxshi uyushtiradigan musiqali – ritmik mashg'ulotlardan boshlanadi. SHundan keyin

bolalar sokin, e'tiborini chetga qochirmay o'tirib, ashula aytadilar va musiqa tinglaydilar. Bu amallarni hammasida ham ritmik harakatlar bilan amalga oshirishga bo'ladi. Ular o'zlarini, o'rtoqlarini, pedagogning ko'rsatmalarini tinglab, ashula aytish improvizatsiyalari uchun ijodiy topshiriqlarni bajaradilar, o'zlariga yaxshi tanish bo'lgan kuy va qo'shiqlarni takrorlaydilar, yangi qo'shiqlar o'rganadilar. Mashg'ulot oxiriga yaqinlashganda tinch xarakatlar bilan yakunlanadigan o'yin, raqs, jamoalari bilan kuylash mashg'ulotlari o'tkaziladi.

Musiqali-estetik tarbiya bir qator muhim vazifalarni amalga oshiradi va shu bilan birga bola hissiyotini va fikrlarini takomillashtiradi.

Bolalar tinglaydigan yoki ijro etadigan musiqa asarlari o'z xarakteri, janri, takror bayon qilish usullariga ko'ra har xildir va ular o'rtasidagi aloqa o'xshashligi va farqi, muvofiq va zidligiga ko'ra o'rganiladi.

Musiqa asarlari pedagogik maqsadlarda tanlanar ekan, quyidagilarga: musiqa, qo'shiqlar, tekstlar xarakterida va rejali cholg'u kuy va qo'shiqlarning normalarida ochib beriladigan emotsional-obrazli mazmunga, mavzuga yo'nalganlikka;

- janrga-lirik vazmin, qahramona tantanali, hazil – quvnoq;
- strukturasiga - ayrim qismlar, iboralar muqqadima, xotima.
- ifodali vositalariga - yuqori laddan eshitishga, registr
- dinamik templi - ritmik tembrga e'tibor berish lozim.

Shunday qilib, bolalar musiqa asarlarini umumlashgan holda idrok etish usullarini aynglaydilar va o'zlashtirib olishlarida muxim vosita hisoblanadi⁵[30].

Bola uchun musiqa quvnoq kechinmalar dunyosidir. Uning oldida bu dunyoning eshigini ochish uchun unda qobiliyatlarni, eng avvalo musiqa oxanglarini to'g'ri qabul qilish va emotsional iltifotlilikni o'stirish lozim. Aks xolda muzika o'zining tarbiyaviy funktsiyalarni bajara olmaydi.

⁵ МАҲАММАТОВ А. Н, МИРЗАЕВА. Г Мактаб ёшигача бўлган болаларни турли хил музика фаолиятларига ўргатиш йўллари 13.08.2013 мақола

Ilk bolaligida kichkintoy bola musiqani o'z atrofidagi tovushlar, shovqinlardan farqlaydi. U o'z e'tiborini tinglagan kuyga qaratadi ma'lum vaqt jim qoladi, tinglaydi, unga jilmayish, g'ug'ulash ayrim harakatlar bilan javob beradi, “jonlanishlar kompleksini” namoyon qiladi.

Katta bolalar anchagina o'sgan, psixologik qobiliyatlarga ega bo'ladilar. Ular hodisalar o'rtasidagi ba'zi aloqalarni anglaydilar, oddiy umumlashtirishlarni amalga oshira oladilar - masalan, musiqa xarakterini, ijro etilgan kuy yoki qo'shiqning qaysidir belgilariga ko'ra quvnoq, shodmon sokin yoki g'amgin ekanligini aytib bera oladilar. Ularning xarakteriga ko'ra turlicha bo'lgan qo'shiqlarni qanday kuylash kerakligi, tinch xorovodda yoki xarakatli raqsdan qanday harakat qilish kerakligi xaqidagi talablar ham tushunarlidir. Musiqa qiziqishlari ham shakllanadi; faoliyatning u yoki bu turiga ya'ni, musiqa janriga moyillik bildiriladi. Olti – etti yoshga kelib badiiy didning boshlang'ich kurtaklarining namoyon bo'lishi - asarga va uning ijrosiga baho bera bilish qobiliyatlarining namoyon bo'lishi- asarga va uning ijrosiga baxo bera bilish qobiliyati kuzatiladi.

Bu yoshda ashula aytiladigan ovoz jarangdorlik, oxangdorlik, xarakatchilik kasb etadi. Bolaning diapazoni tenglashadi, vokal intonatsiyasi ancha barqarorlashadi. Agar to'rt yoshli bolalar hali ham katta kishi qo'llab – quvvatlab turishiga muxtoj bo'lsalar sistemali tarzda o'qitish natijasida olti yoshli bolalarning ko'pchiligi musiqa asbobi jo'rligisiz ham kuylay oladilar.

Musiqa mashg'ulotlari davomida bolalarning hatti – xarakatlari, o'quv va ijodiy topshiriqlarni bajarishga yo'naltiriladi. Ular kuylash jarayonida ijrochilik malakalarini egallaydilar va o'zlarining sodda ohanglarini badixa qiladilar, turli raqslarni ijro etishda, turli raqs xarakatlarni bajarishda musiqali o'yin obrazlarini o'zlaricha ifodalashga urinadilar. Bog'cha bolalariga kuy va qo'shiqni kuylatish, o'yin o'rgatish va turli o'zbek milliy cholg'ulari bilan tanishtirish orqali ularning

musiqaga boʻlgan qiziqishi, xavasi ortib boradi va bu esa muxim vosita boʻlib xizmat qiladi.⁶ [30]

Bola shaxsining har tomonlama kamol topishi estetik tarbiyaning axloqiy aqliy va jismoniy tarbiyaning uzviy aloqasi tufayli roʻyobga chiqariladi. Gʻoyaviy – axloqiy taʼsirini amalga oshirilishiga toʻgʻri ishlab chiqilgan va bolalarning yosh imkoniyatlariga muvofiq tanlangan repertuar yordam beradi. Biroq eng asosiysi - musiqaning oʻziga xos xususiyati tufayli shakllanadigan “Xissiyotlar maktabi” boʻlib tinglovchida birgalikda xis qilish tuygʻusini uygʻotishdir.

Musiqqa mashgʻulotlarida bilish va aqliy faoliyatlar xam aktivlashadi. Bolalar musiqani diqqat berib tinglar ekanlar koʻp narsalarni bilib oladilar. Biroq, bunda ular musiqaning eng umumiy xususiyatlari eng yorqin obrazlarinigina idrok etadilar. Agar bolaning oldiga musiqani eʼtibor berib tinglash, uning ifoda vositalarini farqlash, qiyoslash, ajratish vazifalari qoʻyilgan boʻlsa emotsional munosabat oʻz ahamiyatini yuqotmaydi. Bu aqliy xarakatlar bola xissiyoti va kechinmalari doirasini boyitadi hamda kengaytiradi, ularga onglilikni tarkib toptiradi.

Musiqali estetik tarbiyaning garmonikligiga musiqqa faoliyatining maktabgacha yoshdagi bolalarga tushunarli boʻlgan barcha turlaridan, oʻsib kelayotgan insonning barcha imkoniyatlaridan foydalanilgan taqdirdagina koʻzlangan maqsadga erishish mumkin. Shu bilan birga pedagogikning vazifalari murakkablashtirilgan ekan, bolalarning oʻzlariga xos taʼsirchanliklarini suisteʼmol qilmaslik lozim. Musiqqa sanʼati, uning oʻziga xos xususiyatlari pedagogning oldiga bir qator spetsifik vazifalarni hal qilishni koʻndalang qilib qoʻyadi:

- musiqaga muhabbat va qiziqishni tarbiyalash. Faqat emotsional taʼsirchanlikni va moyillikni oʻsitirishgina musiqaning tarbiyaviy taʼsirida keng foydalanish imkonini beradi;

⁶ Кулжонов. Б, Камолова. Г Боғча болаларини муסיқага бўлган қизиқишларини ривожлантириш омиллари 13.08.2013 мақола

- bolalarni muayyan uyushtirilgan sistema yordamida turli xildagi musiqa asarlari hamda unda foydalaniladigan ifoda vositalari bilan tanishtirib, ularning taassurotlarini boyitish;

- bolalarda musiqa hamda ashula aytish, ritmika, bolalar musiqa asboblari chalish sohasida eng oddiy ijrochilik malakalarini shakllantirib, ularni musiqa faoliyatini xilma - hil turlarida qatnashtirish. Ularni musiqa savodining elementlari bilan tanishtirish. Bularning barchasi bolalarga ongli, bevosita, ifodali harakat qilish imkonini beradi;

- bolalarga umumiy musiqa qobiliyatini (sensor yuqori ladda eshitish, ritmni his qilish qobiliyatlarini) o`stirish, xonandalik ovozi va harakatlarning ifodalaligini tarkib toptirish. Agar mazkur yoshda bolani aktiv amaliy faoliyatga o`rgatilsa va qatnashtirilsa uning barcha qobiliyatlari shakllanadi va o`sadi;

- bolaning musiqa didini kamol topishiga yordam berish . Musiqa haqida olingan ta`sir va tasavvurlar asosida avvalo ijro etilayotgan asarlarga nisbatan tanlash, so`ngra esa baxolash munosabatlari namoyon bo`ladi;

